

**FRANSUZ TILIDA KLISHE VA STERIOTIP TUSHUNCHALARINING O'ZIGA XOS
TOMONLARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10644597>

Xasanboyeva Nafizaxon Olimjonovna

Andijon davlat chet tillari instituti doktoranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada klishe so'zining paydo bo'lishi, tilshunoslar tomonidan berilgan ta'riflar va ma'nodosh so'zlar, ularni nutqda qo'llanilishi haqida ochib berishga harakat qilingan. Bundan tashqari, klishe va steriotiplar o'rtasidagi farqlar haqida to'xtalib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *klishe, steriotip, siyqasi chiqqan, banallik, emotsional vaziyatlar, konnotatsiya, meta-til.*

Аннотация: *В данной статье предпринята попытка раскрыть появление слова «клише», данные лингвистами определения и синонимы, а также их употребление в речи. Кроме того, обсуждаются различия между клише и стерильностью.*

Ключевые слова: *клише, стереотип, банальность, эмоциональные ситуации, коннотация, метаязык.*

Abstract: *This article makes an attempt to reveal the appearance of the word "cliché", the definitions and synonyms given by linguists, as well as their use in speech. In addition, the differences between cliché and sterility are discussed.*

Key words: *cliché, stereotype, banality, emotional situations, connotation, metalanguage.*

Klishelar insonlarning ijtimoiy hayotidagi kundalik extiyojlarini so'zlashuv orqali ommaga yetkazib birishdagi o'zgarishlarning aksidir.

Tipografiyada tug'ilgan "cliché" yaniy "nutqiy qolip" [1,151 b], nutqda qayta-qayta takrorlanish oqibatida paydo bo'lishi, qadimgi davrlarga borib taqaladi, ularni so'zlashuvda kamsituvchi ma'noda tushunish esa 19-asrga borib taqaladi [2, 21 b]. Lekin bu davrda "klishe" atamasi mavjud bo'lmagan va 1869-yildan boshlab ushbu atama fransuzcha lug'atda birinchi marta siyqasi chiqqan (banal) fikr yoki iboraning ko'chma ma'nosi sifatida paydo bo'ladi. Asli texnik so'z hisoblangan "Clicher" fe'li esa ilk bor 1803 yilda tipografiyalarda qo'llanila boshlanadi. Larrus esa klishe kelib chiqishi haqidagi "Klishe gazeta bosmaxonalariidagi bir hilda takrorlanuvchi formulalarni ko'rgan matbaachilar hayqirig'idan paydo bo'lgan so'zdir" deya sozlab beradi [3, 433 b]. Bundan hulosa qilish mumkunki, klishe adabiy qiymatdan voz kechib, noa'naviy holda o'ziga xoslik bilan paydo bo'lgan.

Lug'atlarda klishega berilgan ko'plab ta'riflarning to'g'ri yoki notog'ri bo'lishidan qat'i nazar, bu tushuncha, shubhasiz, XIX-asrda tilshunoslar o'rtasida ko'plab baxs va munozaralarga sabab bo'ldi. Shulardan biri bo'lgan Floberning "Le dictionnaire des idées reçues" nomli mashhur asarida, u tomonidan klishelarni banallik va umumiy haqiqatlarni o'zida mujassamlashtirgan atama deya ta'rif berilishi olimlar o'rtasidagi ommalashishiga sabab bo'ladi. Biroq bu ta'rifalar ortasidagi farqlarni aniqlab bermaydi.

Shu bilan birga, mashhur stilist Remi de Gurmonning 1899 yilda nashr etilgan "Esthétique de la langue française" nomli asarida, "klishe hatto gapning moddiyligini ifodalay oladi" degan fikrni beradi [4, 81 b]. Boshqacha qilib aytganda, ushbu stilist klishelarni kontekstga sezilarli darajada kirishib ketgan fugura sifatida aniqlash mumkinligini haqidagi taklifni birinchilardan bo'lib beradi.

Bundan tashqari - klishe takror qo'llanilishi natijasida siyqasi chiqqan figura tushunchasiga ega bo'lib, stereotiplik xususiyatlarni ham namoyon eta oladi [5, 607-625 b]. Har bir klishe ortida aniq bir holatda so'zlovchining maqsadlari bilan bog'liq bo'lgan konnotatsiyalar majmuasi mavjud bo'lib, ularning nutqdagi vazifasidan qat'i nazar, ular doimo so'zlovchining maqsadiga yo'naltirilgan bo'ladi. So'zlovchi uchun klishe ma'lum bir stilistik ma'noga ega bo'lgan holda cheklangan doiralarida qo'llaniladi va shu bilan birga muloqot turiga qarab o'z xususiyatga ega bo'la oladi. Soz'lashuvchilar o'rtasidagi muloqot natijasida bir necha marta takrorlanuvchi harakatlar nutqda sayqallanib, insoniy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettirgan holda, ushbu xususiyatlari bilan birga boshqa bir jamiyat a'zolari tomonidan o'zlashtirilib avtomatik ravishda takrorlanishi oqibatida klishelar paydo bo'ladi. V.Vinogradovning fikricha "inson ongi tez-tez takrorlanadigan vaziyatlarni aks ettiradi va shu bilan birga tegishli psixologik me'yorlarni keltirib chiqaradi, bu esa o'z navbatida tilda klishe shaklida aks etadi" [6, 25 b].

Nutqiy va aqliy harakatlarni tejash maqsadida tayyor til formulalaridan yangi klishelardan foydalanish natijasida so'zlovchi nutqida katta engilliklarga ega bo'ladi, biroq yuqorida aytib o'tilganidek klishelar turli vaziyatlarda turli xususiyatlarni vujudga keltiradi va bulardan biri stereotiplik xususiyatidir. Shu sababli stereotipni klishening yana bir ma'nosi sifatida qarashgan, biroq bu ikki tushuncha o'rtasida katta farq bor.

Stereotip grek tilida kirib kelib, "stereo" yangi fransuz tilida "solide" "mahkam" degan ma'noni anglatadi. XIX asr boshlari "cliché" so'zi metal plastik ma'nosini anglatib turgan bir payitda 1875 yili Larousse lug'atida "ouvrage stéréotype" terminiga "yangi nashrlar uchun saqlanadigan, o'zgarmaydigan nashriyot doskasi" deya ta'rif beriladi [7, 565 b]. "Stereotip" so'zi o'zgarmaslik va takrorlanuvchi konnotatsiyalarni o'z ichiga olgan bo'lib, bugungi kungacha ushbu ikki xususiyatlarni o'zida saqlab qolgan termindir. XX- asr boshlarida esa psixologiya va sotsiologiya sohalari tipografik dunyodan olingan "stereotip" so'zini "bir fikr yoki bir nuqtai nazar mulohazasiz qabul qilinadi va keng takrorlanadi" deya tasvirlashgan [8, 51 b].

Inson ongida o'ylamasdan shakllangan va avtomatik ravishda takrorlanadigan stereotipik bayonotlar, o'zining etnik kelib chiqishini o'z ichiga olgan ma'naviy va madaniy

ruhiyati bilan boyitilgan signal so'zlar qatoriga kiradi, chunki ular insonning hissiy munosabatini aniq aks ettira oladi va ushbu fikrlarni aniq yo'naltirib, qay tarzda harakat qilishini tezda aniqlashga imkon beradi. Bundan ko'rinib turibdi-ki stereotip, ma'lum bir jamoaning bir xil g'oyalar yig'indisi bo'lib, u ko'pincha shaxs, guruh yoki ijtimoiy sinf turiga tegishli, umumlashtirilgan fikrlar shaklini o'z ichiga oladigan tushunchadir. Unda asosan jamoaviy fikrlash vazifasi bo'lib, uning yordamida jamiyatning boshqa a'zolarini solishtirish mumkundir. Demak, stereotip ko'pincha oddiy va juda an'anaviy, yaxshi o'ylangan va ma'lum bir jamiyat vakillari tomonidan asosli tarzda asoslangan nutq formulasidir. Stereotiplarini yaralishining muhim omili, ikki jamiyat vakillari o'rtasidagi o'zaro munosabat bo'lib, ular ayni emotsional vaziyatlarda ikki hil usul bilan: birinchisi bu o'zini boshqalar bilan taqqoslash orqali (nemislar frantsuzlarga qaraganda intizomliroq); ikkinchisi o'z fazilatlarini ko'rsatish uchun boshqalarda ba'zi illatlarni payqayqash orqali yaniy etnik zidiyatlar orqali (chexlar frantsuzlar ni mag'rur deyishadi) vujudga keladi [9, 498 b].

Xulosa qilib shuni aytish mumkun-ki, stereotiplar shaxsiy tajribalarga asoslanmagan holda, ijtimoiy muhit tomonidan yuzaga keladigan his-tuyg'ularning mahsulidir va shu sababli ular turli tanqidlarga qarshilik ko'rsata oladilar. "Stereotiplar - bu bir jamiyatning boshqa jamiyat bilan, o'zi yoki boshqa voqelik bilan bo'lgan tajribalari natijasi bo'lib, uning meta-tilida o'rnatilgan his-tuyg'ular, vaziyatlar va tasvirlarning murakkab tizimidir"[10, 498 b]. Klishe esa yanada murakkabroq haqiqatni ifodalab, aynan bir davr madaniyati va suhbatdoshiga taaluqli bo'ladi.

"U yashagan madaniy vaqt va makondan tashqarida joylashgan, o'z konteksti bilan funksional munosabatlarni saqlab qolgan holda, ma'noni sof signalga, yaniy ramziga aylantiradi.... Agar shunday deb aytish mumkin bo'lsa, klishe ma'noning "lavhasi"dir"[11], yaniy og'zaki nutq an'anasiga ko'ra klishe haqiqatni ifodalaydi.

ADABIYOTLAR

1. J. Jalolov "Chet tili o'qitish metodikasi" TOSHKENT «O'qituvchi» 1996 yil 151 b.
2. Amossi, "Du cliché", p. 21.
3. Le Dictionnaire historique de la langue française d'Alain Rey (p. 433).
4. Molinié, "Cliché", p. 81.
5. Николаева Т.М., Седакова, И.А. Ценностная ориентация клише и штампов в современной русской речи // Revue des études slaves. 1994. Т. 66. Fascicule 3. P. 607-625.
6. Amossy et Herschberg Pierrot, Stéréotypes et clichés, p. 25
7. Chalonge, « Stéréotype », p. 565.
8. Ibid. p.51.
9. Ibid. p.498

10. Jenny, Laurent : Structure et fonctions du cliché, in : Poétique, Éditions du Seuil, 1972/12, p. 498
11. Т.В. Романова. Клише и штампы как речевые маркеры толерантности/интолерантности. 2016.
12. Toncrová, Marta et Uhlíková, Lucie : Etnické stereotypy z pohledu různých vědních oborů, Brno : Etnologický ústav Akademie věd České republiky, 2000, p.49-50
13. N.O. Xasanboyeva; LEXICO-SEMANTIC FEATURES OF CLISHES IN FRENCH, American Journal Of Philological Sciences February 28, 2023.
View of LEXICO-SEMANTIC FEATURES OF CLICHES IN FRENCH (theusajournals.com)
14. Хасанбоева, Н. О. (2023). SEMANTICS AND FUNCTIONAL CHARACTERISTICS OF INTERROGATIVE SENTENCES IN MODERN FRENCH LANGUAGE. Scientific Journal of the Fergana State University, 28(4), 27.
15. Хасанбоева Нафиса Олимжоновна. (2023). ПЕРИФЕРИЯ ПОЛЯ ВОПРОСИТЕЛЬНОСТИ ВО ФРАНЦУЗСКОМ ЯЗЫКЕ. IMRAS, 6(7), 33–36.
<https://journal.imras.org/index.php/sps/article/view/431>
16. Nortoeva Nodira Muhammadalievna. (2023). Communicative-pragmatic direction in the study of phraseological units and their derivatives in French and Uzbek.
<https://gejournal.net/index.php/IJSSIR/article/view/1526>
17. Хамрақулова, Ф. М. (2023). УМУМИЙ ВА ХУСУСИЙ ИНКОР ТИПОЛОГИЯСИНИНГ ТИЛЛАРДАГИ КОММУНИКАТИВ-СЕМАНТИК ЖИҲАТЛАРИ. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(1), 755-760.
18. Oripovna, A. I. (2023). ABOUT THE TRANSLATION OF" DARLING" BY THE GREAT FRENCH WRITER GI DE MOPASSAN. JOURNAL OF LANGUAGE AND LINGUISTICS, 6(4), 219-222.
19. Oripovna, A. I. (2023). SPECIFIC CHARACTERISTICS OF REPEATED NOMINATIONS IN SYNTAGMATIC RELATIONSHIPS. JOURNAL OF LANGUAGE AND LIGUISTICS, 6(4), 74-78.